

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"Tasdiqlayman"

Nizomiy nomidagi
O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti
rektori



2025-y

"Kelishildi"

O'zbekiston
Respublikasi
Maktabgacha va
maktab ta'limi vazirligi



2025-y

"Kelishildi"

O'zbekiston
Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar
vazirligi



2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON
DASTURI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI**

60110300 – Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik

(kunduzgi) ta'lim yo'nalishi uchun

Toshkent – 2025

Dastur Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'quv uslubiy kengashining 2025-yil “5” iyun dagi “11”-son qarori bilan tasdiqlangan.

- Tuzuvchilar:**
- **Z.N.Urunova**
O'zMPU “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari” kafedrasi mudiri, PhD., dotsent v.b.
 - **M.M.Kodirov**
O'zMPU “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari” kafedrasi o'qituvchisi, PhD
- Taqrizchi:**
- **L.R.Hayitov**
Qo'qon davlat universiteti “Defektologiya” kafedrasi mudiri, PhD., dotsent

KIRISH

“60110300-Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi Oliy ta’lim muassasalaridagi daktiologiya va imo-ishora nutqi hamda surdotarjimonlik praktikumi fanlari dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. “60110300-Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihindona surdotarjimonlikning asosi bo‘lgan daktiologiya va imo-ishora nutqidan amaliy ish bajarib, o‘zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlarni tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

I. Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar.

1. So‘zlarni aniq va ravon, to‘g‘ri talaffuz qilgan holda daktillay olish, so‘zning tovush tarkibiga e’tibor berish kerak. Berilgan matnni daktillayotganda daktilemalar aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Bir so‘zdan ikkinchi so‘zga o‘tayotganda kichik pauzaga rioya qilishi, qo‘llar yuzning yonida, labga parallel turishi kerak. So‘zlarni daktillayotganda og‘zaki nutq bilan bir xil tezlikda bo‘lishi kerak. Og‘zaki nutq daktilemadan oldinda yoki aksincha orqada qolmasligiga ahamiyat berish kerak.

2. Daktillanayotgan qo‘ldan gaplarni to‘liq aytib berishi kerak. Gap tarkibidagi so‘zlarni o‘z o‘rnida grammatik qoidalariga rioya qilgan holda o‘qib berishlari kerak.

3. Biron bir mavzuni imo-ishora orqali aytib berishda har bir so‘zning imo-ishorasini aniq va tushunarli ko‘rsatishi shart. Imo-ishorani qo‘llayotganda qo‘llar yelka kengligidan chiqib ketishi kerak emas. Imo-ishora segmentatsiyasiga rioya qilishlari zarur. Ma’lum so‘zning imo-ishorasini topa olmaganda gapning umumiy ma’nosini yo‘qotmagan holda so‘z o‘yini orqali gapni imo-ishorada bayon qila olishlari kerak.

Abituriyent jadval bo‘yicha belgilangan kunda har bir topshiriqqa 30 daqiqa vaqt davomida amaliy topshiradi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Imo-ishora fanidan bajarilgan ishga 10 tadan so‘zning imo-ishorasini ko‘rsatib berish, daktillanayotgan qo‘ldan gapni to‘g‘ri o‘qib berish hamda erkin mavzuda matnni imo-ishorada ko‘rsatib berish va bu savollarga sinov o‘tkazuvchi komissiya a’zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo‘yadilar. Har bir topshiriq bo‘yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo‘nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 93 ballni tashkil etadi,

Imo-ishora bo'yicha	- 30,0 ball
Daktilologiya bo'yicha	- 30,0 ball
Erkin mavzu bo'yicha	- 33,0 ball

Imo-ishora

Nº	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Yem bermoq, kutib olmoq, dilkash, qadr-qimmat, mahrum qilmoq, payqamoq, uyushma, zehni o'tkir, tabiatshunoslik, qarshi	0-30 gacha
2	Urug', zerikarli, musibat, matonat, tadbirkorlik, jizzaki, muovin, mazmun, oddiy, aza	0-30 gacha
3	Mug'ombirlik, ta'minot, isbot, tushunmoq, jonga tegmoq, havas qilmoq, qabziyat, taniqli, zangori, xususiy	0-30 gacha
4	Tashabbus, ozodlik, aniq, barbod bo'lish, qiyash, xusumat, ataylab, egallamoq, gumon, ko'chirish	0-30 gacha
5	Spektakl, hujum, dalil, zehn, qo'rqinchli, manzilgoh, hunarmand, olim, imorat, to'g'rilamoq	0-30 gacha
6	Paydo bo'lmoq, xulq, osayishtalik, ravon, hissa, lazzat, odobli, alam, xalaqit bermoq, kengash	0-30 gacha
7	Boquvchi, ilhom, qahramonlik, iloj qilmoq, xalaqit bermoq, og'irlik, odobli, tashkiliy, tajriba, mazmun	0-30 gacha
8	Ziyoli, musibat, dam-badam, tejash, qo'lansa, his, fikrlamoq, tirishqoq, holat, kayfiyat	0-30 gacha
9	Opera, zavq olish, josus, idora qilmoq, obro'sini to'kmoq, tarjimai hol, yallig'lanish, tashviqot yurgizmoq, qo'shimcha, erta	0-30 gacha
10	Ta'sir etish, qaramoq, dilkash, biyobon, boqish, tahqirlamoq, asosiy, harbiy, terrorchilik, jasus	0-30 gacha

Imo-ishora bo'yicha baholash mezonи. Imo-ishora bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori – 30 ball

Nº	Mezon nomi	Ballar	Tavsif
1	Aniqlik va tushunarlik	(0-10 ball)	So'zlarning imo-ishora orqali aniq, ravon, va tushunarli tarzda ifodalanganligi. Noto'g'ri yoki chalkash imo-ishoralar kam balga sabab bo'ladi.
2	Lingvistik to'g'rilik (grammatika, sintaksis)	(0-6 ball)	Imo-ishora tilidagi so'z tartibi, fe'l vaqt mosligi, va boshqa grammatik qoidalar qanchalik to'g'ri ishlataliganligi.

3	Hissiy ifoda va ta'sirchanlik	(0–4 ball)	So'zning ma'nosiga mos ravishda mimika, tana harakati va intonatsiya (agar mavjud bo'lsa) orqali hissiyotning ifodalanishi.
4	Moslik va kontekstga e'tibor	(0–4 ball)	So'zga mos kontekstual imo ishlatalganmi yoki yo'q . Masalan, "tashakkur" so'ziga salomlashuv ishorasi bilan javob berilsa – noto'g'ri.
5	Tayyorlik va ishonchililik	(0–3 ball)	Talabgorda imo-ishora tilini bilishdagi ishonchli va tayyorlik holati . Tutilish, ikkilanish, ortiqcha pauzalar kam ballga sabab bo'ladi.
6	Xatolarning soni va og'irligi	(0–3 ball)	Texnik yoki lingvistik xatolar soni , ularning mazmunga ta'siri.

Daktilologiya

Nº	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Obi -havo chindan ham o'zgargan, ammo bahorning toza musaffo havosi, quyoshning iliqligi odamning dilini,tanini yayratadi.	0-30 gacha
2	Har qanday tuxmat alamli bo'lsa ham, inson sabri va matonati ila haqiqatni yuzaga chiqaradi.	0-30 gacha
3	Tirnoqqa o'tirgan holda xirillashadigan it haqida masal bor. Odamlarda ham shunday: ular yig'laydilar, lekin bu "tirnoq"dan tushishga jur'at etmaydilar.	0-30 gacha
4	Insonni yomon deb hisoblab, keyin pushaymon bo'lgandan ko'ra, uning yaxshi tomonlarini ko'rib, xato qilgan yaxshiroqdir.	0-30 gacha
5	Mamalakatimiz bugungi kunda jahon maydonida o'z o'miga ega bo'lgan davlat sifatida kundan-kunga barcha sohalarda rivojlanib bormoqda	0-30 gacha
6	Ta'lim shunday qudratga egaki, u rivojlangan, u qadr topgan zamin kuch-qudratli, o'z mavqeiyiga ega bo'ladi.	0-30 gacha
7	Xato qilish insoniyatga xos va bundan qo'rmaslik kerak, biroq qilgan xatolamizni anglab turib to'g'rilashga harakat qilmaslik jaholatdir	0-30 gacha
8	Inson qachonki qalbi istagan ishga bel bog'lasa muvaffaqiyat qozonishi tayin chunki bu mehnatning tagida zavq yotadi.	0-30 gacha
9	Qahva butun dunyoda iste'mol qilinadigan ichimlik bo'lib, uning tarkibida inson hayotiy jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kofein moddasi mavjud.	0-30 gacha
10	Erta tongda uyg'onib piyoda sayr qilish inson organizmiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, immunitetni oshirishga nafas organlari	0-30 gacha

faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Daktilologiya bo'yicha baholash mezonlari. Daktilologiya bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball – 30 ball

Nº	Mezon nomi	Ballar diapazoni	Tavsifi
1	Daktillashni o'qish qobiliyati	(0-10 ball)	Daktilangan harflarni tez va to'g'ri o'qiy olishi.
2	So'zlarni aniqlik bilan tanib olish	(0-8 ball)	Har bir daktilangan so'zni to'g'ri tushunishi.
3	Imlo va grammatic to'g'riliq	(0-3 ball)	Og'zaki ifoda grammatic jihatdan to'g'riliq
4	Gapning mantiqliligi	(0-3 ball)	Qayta aytilgan gap mantiqli va izchilligi
5	Gap mazmunini saqlash	(0-3 ball)	Asl daktilangan gapning mazmunini saqlaganligi
6	Javob ishonchliligi	(0-3 ball)	Javob aytiganda ishonch bilan va uzilmay taqdim etishi

Erkin mavzu bo'yicha baholash mezonlari.

Abituriyent ixtiyoriy mavzuda fikrini parallel ravishda daktil va imo-ishoraga aniq tarjima qilib berishi lozim.

Erkin mavzu bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball – 33 ball

Nº	Mezon nomi	Ballar diapazoni	Tavsifi
1	Lug'aviy boyligi	0-10 ball	So'zlar va imo-ishoralar xilma-xilligi hamda mavzuga mosligi
2	Grammatik to'g'riliqi	0-8 ball	Imo-ishora segmentatsiyasiga rioya etishi
3	Tana harakatlari, mimika va yuz ifodasi	(0-5 ball)	holat va shaxsni ifodalovchi tana harakati, his-tuyg'ular va ohang yuz ifodasi orqali to'g'ri ko'rsatishi
4	Mantiqiy izchillikka amal qilishi	(0-4 ball)	Fikrlar bir-biriga mantiqan bog'langanligi
5	Ijodkorlik va shaxsiy yondashuv	(0-3 ball)	Matnga shaxsiy fikr, emotsiyal yondashuv va erkinlik kiritilganligi
6	Nutqning ravonligi va uzlusizligi	(0-3 ball)	Imo-ishora nutqi uzlusiz, tabiiy va ravon ifodalashi

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi

"60110300-Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik" bakalavriat ta'lif yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, belgilangan auditoriyada imtihon topshiradi.

Imtihon 3 ta ijodiy topshiriqdan iborat bo'lib, quyidagi reglamentga ko'ra o'tkaziladi:

Topshiriqlar navbatি	Topshiriqlar yo'naliши	Ajratilgan vaqt
1-topshiriq	Imo-ishora	5 minut
2-topshiriq	Daktilologiya	5 minut
3-topshiriq	Erkin mavzu	10 minut

Abituriyent bahosi imtihon yakunida e'lon qilinadi, qaydnomaga qo'yiladi, komissiya a'zolari va abituriyent tomonidan imzolanadi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi bo'lganda, natija e'lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi murojaatchining imtihon vaqtida yozib olingan videoyozuvini o'rGANIB chiqish orqali abituriyent murojaatiga javob beradi.